QASHQADARYO VILOYATI YAKKABOG‘ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 3-dekabr 514-4-68-Q/24 Yakkabog‘ tuman hokimligi

Yakkabog‘ tumanida yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori va Yakkabog‘ tuman IIB boshlig‘i Sh.Choriyevning 2024-yil 31-oktabrdagi 52/6797-sonli xatini ko‘rib,

QAROR QILAMAN:

1.Yakkabog‘ tuman Ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasining tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarda yo‘lovchilar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatishga amaliy yordam so‘rab 2024-yil 31-oktabrida yozgan 52/6797-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yakkabog‘ tumani markaziy “Istiqbol” oziq-ovqat dehqon bozori hududi atrofida transport vositalarini tartibsiz qo‘yilib tirbandlik vujudga keayotganligi sababli, harakat xavfsizligini ta’minlash, transport vositalarini tirbandligini hamda yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida:

Yakkabog‘ tuman markaziy A.Temur ko‘chasi 4K347A avtomobil yo‘lining “Istiqbol” oziq-ovqat dehqon bozori hududida va bozor yonidan o‘tuvchi yo‘l qismining 2 km oralig‘ining o‘ng va chap tomoniga 3.27 (to‘xtash va to‘xtab turish) yo‘l belgisi 4 dona o‘rnatilsin.

Yakkabog‘ tuman markazidagi “Navro‘z” choyxonasi oldidan o‘tuvchi Taraqqiyot ko‘chasi avtomobil yo‘lining 400 metr qismining o‘ng va chap tomoniga 3.27 (to‘xtash va to‘xtab turish) yo‘l belgisidan 2 dona o‘rnatilsin.

Yakkabog‘ tuman markazi A.Temur ko‘chasi 4K347A avtomobil yo‘li va Taraqqiyot ko‘chasining qo‘shilishigacha bo‘lgan (Yakkabog‘ Neftbazasi oralig‘idan o‘tuvchi Saxovat ko‘chasi avtomobil yo‘lining 1 km qismining o‘ng va chap tomonida 3.27 (to‘xtash va to‘xtab turish) yo‘l belgisidan 2 dona o‘rnatilsin.

4N274 “Yakkasaroy-Yakkabog‘” avtomobil yo‘lining 5-kilometri 4R84 “Yakkabog‘-Chiroqchi, Ko‘kdala-Shurbozor” avtomobil yo‘lining kesishgan chorrahasi“Jambul” MFY Saxovat ko‘chasi Yakkabog‘ dehqon bozori qismi va Taraqqiyot ko‘chasi 4K347A “Yakkabog‘ tumani markaziga kirish” (Qarshi ketish avtoturargoh) avtomobil yo‘lining 300 metr qismining o‘ng va chap tomoniga 3.27 (to‘xtash va to‘xtab turish) yo‘l belgisidan 2 dona o‘rnatilsin.

4N274 “Yakkasaroy-Yakkabog‘” avtomobil yo‘lining 5-kilometri 4R84 “Yakkabog‘-Chiroqchi Ko‘kdala-Shurbozor” avtomobil yo‘lining kesishgan chorrahasi “Jambul” MFY Saxovat ko‘chasiga kirish” (Toshkent ketish avtoturargoh) avtomobil yo‘lining 300 metr qismining o‘ng va chap tomoniga 3.27 (to‘xtash va to‘xtab turish) yo‘l belgisidan 2 dona o‘rnatilsin.

3. Yakkabog‘ tuman yo‘llardan foydalanish DM (U.Fayziyev) ushbu yo‘l belgilarini o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari va yo‘l chiziqlariga amal qilishlari shuningdek, berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shartliligi belgilansin.

5. Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (Sh.Choriyev), tuman IIB YXB boshlig‘i kapitan (N.Murodov)lar yo‘l belgilari o‘rnatilgan avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash va doimiy ravishda nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimligining axborot xizmati (Sh.Xasanov) ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida hamda boshqa ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari E.Begnayev zimmasiga yuklatilsin.

8. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Yakkabog` tuman hokimi



L.J.ABDULLAYEV